

B.N. TOSHPO'LATOVA

DEUTSCH

I



NAVOIY—2010

Ushbu uslubiy qo'llanmada erkin mavzular bo'yicha, grammatik, fonetik topshiriqlar, matn va lug'atlar berilgan. Talabalar mustaqil ishlari uchun leksik mashqlar, mavzuni yoritish, fikrini yozma va og'zaki bayon etishlarida ushbu uslubiy ko'rsatmadan keng foydalanadilar. Shuningdek, ushbu uslubiy qo'llanma nemis tiliga qiziqqan iqtidorli talabalar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Mas'ul muharrir:

nemis tili o'qituvchisi A.I.Aslonov

Taqrizchilar:

Navoiy davlat pedagogika instituti "Chet tillar"

kafedrasi mudiri, dotsent O'.T. Turniyozov

Navoiy davlat konchilik instituti «O'zbek va chet tillar»

kafedrasi mudiri dotsent F.Saidov

Navoiy davlat pedagogika instituti Ilmiy kengashi (2005 yil majlisi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

1-Stunde

1. Fonetika;
2. Fonetik mashqlar;
3. Text. Familie.

Mashg'ulotlar maqsadi

Bosh maqsad – Xalqaro aloqalarni o'rnatishda, ozod va abod vatanga o'z hissamizni qo'shishda til o'rganishning mohiyatini chuqur his etish. Har tamonlama yetuk, komil, inson tarbiyasida ta'limning tutgan o'rni, chet tilini o'rganishda o'z ona tilimizga suyanan holda til aspektlardan unumli foydalanish.

Talabalarning og'zaki nutqini o'stirish, jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishdan iboratdir.

Mashg'ulotlar rejasi:

1. Nemis tilining fonetika; Leksikologiya; Frazologiya; Morfologiya va sintaksis bo'limlarini chuqur o'rganish;
2. Erkin mavzular bo'yicha og'zaki nutqni o'stirish;
3. Mashqlar ustida mustaqil ishlashga o'rgatish.

Nemis tili alfaviti:

Tilda harflarning muayyan tartibda joylashtirilishiga alfavit deyiladi.

Nemis tilida alfavitda 26 ta harf bo'lib, ulardan 6 tasi unli (a, e, i, o, u, y), qolgan 20 tasi undoshdir.

Nemis tilidagi 26 ta harf 45 ta tovushni ifodalaydi. Har bir harfning qanday tovushni ifodalashi uning so'zidagi o'rni, boshqa harf bilan birikib kelishiga bog'liq bo'ladi.

Quyida ana shunday holatlar ifodalangan.

1. Nemis tilidagi "a" harfi so'zdagi o'rnidan qat'iy nazar bitta tovushni ifodalaydi. Nemis [a] tovush o'zbek [o] tovushga o'xshab o'qiladi.

[Aola, Adlek, Anna]

2. Nemis tilidagi [b] harfi so'zdagi o'rniga ko'ra ikki tovushni anglatadi. Unlilardan oldin va ikki unli o'rtasida jarangli portlovchi [b] tovushdek o'qiladi: haben, abends, aber, eben.

3. Nemis "s" harfi ikki tovushni anglatadi. Bu harf a, o, I unlilaridan oldin kelsa o'zbekchadagi [ʒ] kabi [I, e, ie, ä, ü, ö] unlilaridan oldin esa o'zbekchadagi [ʈ] [ts] tovushga o'xshab o'qiladi: Cäsar, Cent.

4. Nemis "d" harfi ikki xil o'qiladi. Unlilardan oldin va ikki unli o'rtasida kelsa o'zbekchadagi jarangli [d] tovushdek der, das, baden, Ledek so'z va bug'in oxirida kelsa [t] tovushga yaqin talaffuz qilinadi. Land, Bond, Herdmeister.

5. nemis [e] harfining o'qilish xususiyati 4 xil.

a) Ochiq bug'in, yopiq bug'in, urg'uli bug'in oxirida o'zbek tilidagi [e] kabi o'qiladi. Leda, weg, Helena.

b) Yopiq bug'in, qo'sh undosh, ikki yoki undan ortiq tovushdan oldin kelsa o'zbekchadagi [ɛ] tovushdek o'qiladi. Sendung, Beft, Werk, Mensch.

v) urg'usiz bug'inda kelgan «e» harfi reduksiyaga uchraydi, ya'ni zaif o'qiladi. Bu Murmellaut deyiladi.

g) «g» unlisidan keyin kelgan «yo» harfi o'qilmaydi, [i] tovushning cho'zib o'qilishini bildirib, cho'ziqlik belgisi xizmatini o'taydi. Tier, sie, liegen.

6. Nemis «f» harfi o'zbekchadagi [f] tovush kabi o'qiladi. Fabrik, febt.

7. Nemis «g» harfi ikki xil talaffuz qilinib unlilardan oldin yoki ikki unli o'rtasida kelsa, o'zbekchadagi jarangli [g] tovushga o'xshab o'qiladi. gehen, Gans, gut, liegen.

8. Nemis «h» harfini o'qishda ikki harsaga e'tibor berish lozim.

a) so'z va bug'inning boshida kelsa «h» harfi o'zbek tilidagi jarangsiz [h]tovushiga o'xshab qoladi. haben, dahin.

b) unlidan keyin ikki unli o'rtasida kelgan «h» harfi o'qilmaydi, u faqat oldida kelayotgan unlining cho'ziqligini bildiradi. Bahn, sehen.

9. Nemis «u» harfi o'zbek [u] tovushiga o'xshab o'qiladi.

10. Nemis «s» harfi uch xil o'qilish shakllariga ega.

a) unlilardan oldin va ikki unli o'rtasida o'zbekcha [ʒ] tovushga yaqin o'qiladi. Sand, lessen, sie.

b) bug'in va so'z oxirida o'zbekcha [c] tovushdek talaffuz qilinadi. Maske, Haus, raus.

v) "s" harfi soʻz (oʻzak) boshida p.t undoshlaridan oldin kelsa oʻzbekchadagi [sh] tovushi kabi oʻqiladi. Sport, Student, bestehen.

11. Nemis "v" harfi ikki xil oʻqiladi.

a) Nemischa soʻzlarda oʻzbekchadagi «f» tovushi kabi oʻqiladi, lekin «f» kabi oʻqilsa ham [v] yoziladi. Vater, vier, von.

b) nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarda oʻzbek tilidagi [v] tovushi kabi oʻqiladi. November, verb.

12. Nemis [x] harfi oʻzbekchadagi [kc] kabi oʻqiladi. Marx, text, Alexander.

13. Nemis «y» harfi ikki xil oʻqiladi. Birinchi holatda uy, kuy soʻzlaridagi [y] tovushi kabi oʻqiladi. Analyse, Gymnastik. Ikkinchi shakli oʻzbekcha [u]ga oʻxshab ketadi. U asosan chet tillaridan kirgan soʻzlarda uchraydi. Jury-jyuri, Hobby.

14. Nemis «z» harfi oʻzbekcha [ts] [ʈ] tovushi kabi oʻqiladi. Zone, Zimmer, Arzt.

Harf birikmalarining oʻqilishi.

1. «c» va «h» harflari «ch» (ʈe-xa) birikmasini tashkil qiladi va bu birikma uch xil oʻqiladi.

a) «ch» harflar birikmasi a, o, u unlilari, [au] diftongidan keyin kelsa oʻzbekchadagi «taxta, paxta» soʻzlaridagi [x] tovushga oʻxshab oʻqiladi va u [x] axlaut nomi bilan yuritiladi. Bach, doch, Buch.

b) «ch» harflar birikmasi [i, e, ä, ö, m, n, l, r, ei, eu, äu] tovushlaridan keyin kelsa, [h] kabi oʻqiladi. Bu tovush [c] ihlaut deb yuritiladi.

v) «ch» harflar birikmasi «s» harfidan oldin kelsa [kc] tovushini beradi. Wachsen, sechs, Luchs.

g) «gd» harflar birikmasi ham soʻz oxirida ixlaut boʻlib oʻqiladi. richtig, wenig, wichtig.

2. „sch“ harflar birikmasi bilan [sh] tovushini beradi. Nemischa [sh] oʻzbekchaga qaraganda sal shovqinroq oʻqiladi. Schule, waschen.

3. „tsch“ (ʈe-ʈc-ʈe-xa) harflar birikmasi [ch] tovushni bildirib, oʻzbekcha [ch]ga qaraganda sal shovqinliroq oʻqiladi Kutscher, Tschirtschik.

4. „sh“ (es-ha) harflar birikmasi [j] tovushga oʻxshab keladi. Shukow, Shenija.

5. „ng“ (en-v) harflar birikmasi anglaut deyiladi. lang, Menge.

6. „n“ harfi oʻzak tartibida „k“ harfidan oldin kelsa ham, [ng] day oʻqiladi. danken, senken.

7. „ck“ [ʈe-ka] harflar birikmasi oʻzbekchadagi [k] kabi oʻqiladi. Ecke, Decke, Sack.

Nemis tili alfaviti

<i>A</i> a	a	<i>N</i> n	en
<i>B</i> b	be	<i>O</i> o	o
<i>C</i> c	se	<i>P</i> p	pe
<i>D</i> d	de	<i>Q</i> q	ku
<i>E</i> e	e	<i>R</i> r	er
<i>F</i> f	ef	<i>S</i> s	es
<i>G</i> g	ge	<i>T</i> t	et
<i>H</i> h	xa	<i>U</i> u	u
<i>J</i> j	i	<i>V</i> v	fau
<i>I</i> i	yot	<i>W</i> w	ve
<i>K</i> k	ka	<i>X</i> x	iks
<i>L</i> l	el	<i>Y</i> y	ipsilon
<i>M</i> m	em	<i>Z</i> z	set

2-Stunde

Nemis tilidagi unli va undosh tovushlarning oʻqilishi

Harf va harf birikmalari	Oʻqish qoidalari	Misollar
A a	1. a unlisi quyidagi hollarda choʻziq oʻqiladi: a) ochiq boʻgʻinda; b) shartli yopiq boʻgʻinda; c) a dan keyin h kelsa;	Segen, die Tafel Der Tag, die Tage Fahren, die Bahn

B b C c D d E e F f G g H h	d) so'z boshida yoki oxirida qo'sh a kelsa. 2. Yopiq bo'g'inda kelgan a unlisi qisqa o'qiladi, bor so'zidagi b kabi o'qiladi:	Das Paap, der Saal Arbeiten, die Mappe Bunt, der Bruder
	a) ch harf birikmasi a, o, u yoki au dan xato so'zidagi x kabi o'qiladi; b) ch harf birikmasi i, e, ei, ö yoki ü dan keyin behi so'zidagi h kabi o'qiladi; c) chs harf birikmasi iks so'zidagi ks kabi o'qiladi: don so'zidagi d kabi o'qiladi.	acht, das Buch ich, leicht sechs, wachsen dort, der, die
	1. e unlisi quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi: a) ochiq bo'g'inda; b) shartli yopiq bo'g'inda; c) so'z o'ratasida yoki so'z oxirida qo'sh e kelsa; d) e dan keyin h kelsa; e) e dan keyin biror sonor kelsa. 2. Yopiq bo'g'inda kelgan e qisqa o'qiladi;	leben, lessen gebt, geben das Meer, der See der Lehrer, mehr der, dem, den
	fan so'zidagi f kabi o'qiladi; gul so'zidagi g kabi o'qiladi; ham so'zidagi h kabi o'qiladi.	fest, das Bett fallen, der Frieden gut, fragen haben, das Heft

Harf va harf birikmalari	O'qish qoidaalari	Misollar
I i J j	1. i unlisi quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi: a) ochiq bo'g'inda; b) i harfidan keyin e unlisi kelsa; c) i dan keyin (cho'ziqlik belgisi) h kelsa; 2. Yopiq bo'g'inda kelgan i unlisi qisqa o'qiladi: yil so'zidagi i kabi o'qiladi: a) ja harf birikmasi yana so'zidagi ya kabi o'qiladi; b) ju harf birikmasi yung so'zidagi yu kabi o'qiladi; c) je harf birikmasi yemoq so'zidagi e kabi o'qiladi;	Der Tiger, der, Igel hier, liegen ihm, ihnen das Bild, immer ja, der Januar jung, der Juli jetzt, jeder

K k	kecha soʻzidagi k kabi oʻqiladi;	bekommen, Karl
L l	gul soʻzidagi g kabi oʻqiladi;	leben, leicht
M m	men soʻzidagi m kabi oʻqiladi;	die Mutter, machen
N n	non soʻzidagi n kabi oʻqiladi ;	nein, die Fahne
	ng harf birikmasi ming soʻzidagi ng kabi oʻqiladi;	hängen, lang
O o	1. o unlisi quyidagi hollarda choʻziq oʻqiladi:	
	a) ochiq boʻgʻinda;	die Note, oben
	b) shartli yopiq boʻgʻinda;	tot, tote
	c) soʻz oʻrtasida qoʻsh o kelsa;	das Boot
	d) o dan keyin (choʻziqlik belgisi h kelsa);	das Ohr, die Kohle
	2. Yopiq boʻgʻinda kelgan o unlisi qisqa oʻqiladi:	Otto, offen
P p	ip soʻzidagi p kabi oʻqiladi;	Das Pult, der Pionier
	ph harf birikmasi faol soʻzidagi f kabi oʻqiladi;	Die Physik, der Philolog
Q q	qu harf birikmasi kvadrat soʻzidagi kv kabi oʻqiladi.	Das Quadrat, quer

Harf va harf birikmalari	O'qish qoidalari	Misollar
R r	rahmat so'zidagi r kabi o'qiladi;	richtig, rechts
S s	a) unlidan keyin soat so'zidagi s kabi o'qiladi;	das Haus, was
	b) unlidan oldin kelsa, zal so'zidagi z kabi o'qiladi;	der Sohn, siegen
	c) so'z o'rtasida kelgan qo'sh s soat so'zidagi s kabi o'qiladi;	das Messer, besser
	d) t yoki p harfidan oldin shahar so'zidagi sh kabi o'qiladi:	sprechen, studieren
ß	Sobir so'zidagi s kabi o'qiladi:	die Straße
T t	tom so'zidagi t kabi o'qiladi:	turner, der Unterricht
	th harf birikmasi tol so'zidagi t kabi o'qiladi.	das Thema
U u	1. u unlisi quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi:	
	a) ochiq bo'g'inda;	rufen, das Ufer
	b) shartli yopiq bo'g'inda;	ruft, rufen
	c) u harfidan keyin h kelsa.	fuhr, die Uhr

V v	2. Yopiq bo'g'inda kelgan u unlisi qisqa o'qiladi: a) fosh so'zidagi f kabi o'qiladi;	turnen, bunt das Volk, verlieren
W w	b) chet tillardan kelgan so'zlarda ov so'zidagi v kabi o'qiladi;	die Vokabeln, die Revolution
X x	c) voqea so'zidagi v kabi o'qiladi	was, wer, wo
Y y	keks so'zidagi ks kabi o'qiladi;	der Text
Z z	ü kabi o'qiladi;	das Gymnasium
	уирк so'zidagi и kabi o'qiladi;	die Zeit, das Zimmer
Ä ä	erkin so'zidagi e ga o'xshashroq tarzda o'qiladi.	
	1. ä quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi: a) ochiq bo'g'inda;	Erklären, die Säge
	shartli yopiq bo'g'inda;	Der Bär, die Bären

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. Nemis tilida 26 ta harf nechta tovushni ifodalaydi ?
Tovushlar sonini ortiqligi nima evaziga ?
2. Har bir diftongga misollar keltiring ?
3. Unli va undosh tovushlar klasifikatsiyasini o'rganish.
4. Quyidagi matnni fonetik tahlil qiling.

Meine Familie

Ich heiße Karim Akbarov. Ich bin aus Fergana. Ich bin zwanzig Jahre alt. Ich bin am zehnten November geboren. Unsere Familie ist groß. Ich habe vier Geschwister: zwei Schwestern und zwei Brüder. Meine Eltern leben in einem Dorf (Kishlak) bei Fergana.

Jetzt möchte ich Ihnen etwas von unserer Familie und in erste Linie von meinen Eltern erzählen.

Meine Mutter ist Biologielehrerin. Sie ist in einer Schule tätig. Sie hat ihren Beruf gern. Sie ist groß vom Wuchs und schlank, und sie hat kastanienbraunes Haar. Sie ist 49 Jahre alt, aber sie sieht gut aus und scheint viele Jahre jünger zu sein.

Mein Vater ist ein erfahrener Programmierer. Er ist groß, breitschultrig, hat blondes Haar und graue Augen. Er ist zwei Jahre älter als meine Mutter. Er singt gern. Wenn will alle zu Hause sind und freie Zeit haben, spiele ich Gitarre, und wir singen zusammen. Der Vater wie Balles über neue Modelle von Funkempfängern Bescheid und repariert alte.

Meine Eltern sind schon 26 Jahre verheiratet. Sie haben viel Gemeinsames, aber sie haben verschiedene Filme und Bücher gern, und ihre Ansichten über Musik und Sport sind verschieden. Zum Beispiel hat mein Vater Schreckenfilme gern, meine Mutter aber sieht «Seifenopern» zeitweise fern. Das andere Beispiel: mein Vater schwärmt für Tennis, und meine Mutter treibt Sport nicht.

Trotzdem haben meine Eltern einheitliche Meinung über unsere Bildung und Erziehung.

Meine Eltern sind sehr arbeitsam. Meine Mutter führt den Haushalt und sorgt für meinen Vater, meinen Bruder und mich. Sie kocht gut und ist sehr praktisch. Wir bemühen uns ihr beim Haushalt zu helfen, z. B. spülen das Geschirr ab, gehen einkaufen, räumen die Wohnung auf.

Meine Schwester ist 25 Jahre alt. Sie ist verheiratet und hat ihre eigene Familie. Sie ist als Buchhalterin in einem Gemeinschaftsbetrieb tätig. Ihr Mann ist Wissenschaftler. Sie haben Zwilling einen Jungen und ein Mädchen. Sie gehen in den Kindergarten.

Mein Bruder ist 11 Jahre alt. Er ist Schüler. Er möchte Arzt werden, aber er ist denn nicht sicher. Vor drei Monaten hat er geträumt, Kosmonaut werden.

Ich habe zwei Großmütter und einen Großvater. Ich liebe sie sehr und besuche sie oft. Meine beide Großmütter sind schon Rentnerinnen. Eine von ihnen war Lehrerin, die andere Ärztin. Mein Großvater arbeitet noch. In der freien Zeit macht er gern Gartenarbeiten.

Wir haben viele Verwandten: meine Tanten, Onkel, Vetter, Kusinen wohnen in verschiedenen Teilen Russlands. Sie kommen zu uns oft in Urlaub. Wir verkehren miteinander gern.

3-Stunde

So'z shakllarining yasallish usullari

(DIE AUSDRUCKSMITTEL DER FORMBILDENDEN WÖRTER)

Nemis tilida so'zning grammatik formalari quyidagicha yasalladi:

1. so'z negiziga forma yasovchi affiks va qo'shimcha qo'shish yo'li bilan: Kind- **er**, Bild-**er**, (ich) schreib-**e**, (du) schreib-**st**, (wir) schreib-**en**;

O'zbek tilida esa so'z formasi negiziga forma yasovchi affiks qo'shish yo'li bilan yasalladi: bolalar, yozaman, keldi kabi.

2. O'zakdagi unlining almashinishi bilan: du trink-st, du trank-st.

Bu holat faqat nemis tiliga xos bo'lib, o'zbek tilida yo'q.

3. so'zning morfologik formalari turli o'zaklardan yasalladi:

sein-war-gewesen. Bundan so'z formasi suppletiv forma deb yuritiladi. Bu holat o'zbek tilida yo'q.

4. so'z formalari ikki so'zning qo'shilishidan yasalladi: ich werde arbeiten, er wird lesen. Analitik so'z formasi o'zbek tilida ham mavjud. Masalan: ishlagan edim, kelgan bo'lsa.

Demak, nemis tilida so'zning grammatik formalari sodda (sintetik) va murakkab (analitik) (Synthetische und analytische Wortformen) yoki qo'shma bo'lib, ikkiga bo'linadi:

a) So'zning sodda (sintetik) formalari tashqi va ichki fleksiylar yordamida yasalladi.

Tashqi fleksiya (Äußere Flexion). Tashqi fleksiya affikslar (prefikslar va suffikslar) va qo'shimchalar kiradi. Nemis tilida tashqi fleksiya turli so'z turkumlarida bir xil emas. So'z turkumlarining ba'zilari yetarli miqdordagi tashqi fleksiya ega. Otlarning ko'plik formasini yasashda qo'llanadigan suffikslar ko'p bo'lsada, lekin ularda kelishik qo'shimchalari juda kam. Jenskiy rodga oid bo'lgan ot birlikda to'rt kelishik bo'yicha turlanganda hech qanday kelishik qo'shimchasi qo'shilmaydi:

Nominativ (bosh.k.): die Schwester

Genitiv (qar.q.): der Schwester

Dativ (jo'n.k.): der Schwester

Akkusativ (tush.k.): die Schwester

Ot faqat ko'plikning jo'nalish kelishigi (Dativ) da -n qo'shimchasini oladi:

Nominativ (bosh.k.): die Wälder

Genitiv (qar.q.): der Wälder

Dativ (jo'n.k.): den Wälder

Akkusativ (tush.k.): die Wälder

Yuqoridagi hollarda so'zning (otning) formalari analitik (murakkab) vosita, ya'ni artikl bilan ifodalangan. Lekin boshqa o'zgaradigan so'z turkumlari to'liq bo'lgan qo'shimchalarga ega (mas., sifat, olmoshlarning ko'pi, fe'l v. b.)

O'zbek tili otlari, nemis tili otlariga qaraganda, mukammal kelishik qo'shimchalariga ega, qiyoslang:

N. die Stadt – bosh k. shahar

G. der Stadt – qar.k shaharning

D. der Stadt - jo'n.k. shaharga

A. die Stadt - tush.k. shaharni

..... – o'rin.p. k. shaharda

..... – chiqish k. shahardan kabi

Ichki fleksiya (Innere Flexion). Nemis tilida ichki fleksiya keng ko'lamda qo'llanadi. Ba'zan esa u so'z formalarini yasashda birdan-bir usul hisoblanadi. Kuchli fellarning preterit zamon formasining birligidagi birinchi va uchinchi shaxslaridagi fe'l formalari bunga misol bo'la oladi. : ich, er las-, lag-, sang-

kabi. Lekin ko'pincha ichki fleksiya tashqi fleksiya bilan birikkan holda qo'llanadi: das Buch, die Däch-er, du nimm-st, du nahm-st, groß, groß-er kabi.

Nemis tilida ichki fleksiya uch turga ega: ablaut, umlaut va brexung (Ablaut, Umlaut und Brechung).

A b l a u t hozirgi nemis tilida kuchli fe'llarning uch asosiy formalarini aniqlashda qo'llanadi. Singen – sang – gesungen, fliegen – flog – geflogen kabi. Bunda o'zakdagi unlisi o'zgaradi.

U m l a u t bir o'zakdagi cho'ziq va qisqa unlilarning almashinuvidir. Chunonchi: - a - ä (e). o – ö ga, u – ü ga, au diftongi - äu ga ko'chadi.

Nemis tilida umlaut ichki fleksiya sifatida keng ko'lamda ishlatiladi. Umlaut quyidagi so'z formalarini yasashda qo'llanadi:

1. Otlarning ko'plik formasini yasashda: das Buch – die Bücher, die Bank – die Bänk – die Bänke, der Ofen – die Ofen;
2. Sifat darajalarini yasashda: kalt – kälter – am kältesten; warm - wärmen – am wärmsten;
3. Kuchli fe'llarning konyunktivdagi (shart maylidagi) preterit zamon formasini yasashda: ich sah – ich sähe, ich flog – ich flöge;
4. Kuchli fe'llarning hozirgi zamon formasining 2- va 3- shaxslar birligini yasashda: ich laufe – du läufst – er läuft kabi.

Nemis tilida kuchli fe'l o'zagidagi e unlisining i unlisiga qo'shish holati - Brechung deb yuritiladi. Masalan: ich gebe – du gibst.

Unlilarning yuqoridagi kabi uch xil almashinuv o'zbek tilida yo'q. Ammo o'zbek tilida unli tovushlarning o'zgarish xolati bor. Ayrim so'zlarga affiks qo'shilganda, o unlisi a unlisiga aylanadi: son – sana, sanamoq; ong – angla, anglamoq; ot – ata, atash; sayla + v = saylov, to'pla + v = to'plov kabi.

Bu misollardan anglashiladiki, nemis tilidagi ablaut bilan o'zbek tilidagi unli tovushlarning o'zgarishi bir xil emas. Nemis tilida ablaut birinchidan faqat kuchli fe'llarga oid bo'lib, uch asosiy forma buni ochiq ko'rsatadi.

Ikkinchidan, nemis tilida unlilarning o'zgarish holati etti tur o'zgarishini tashkil qiladi, masalan: birinchi turga o'zakdagi unlilarini ei-i-i (reiten – ritt - geritten) ga; ikkinchi turga o'zakdagi unlilarini ie-o-o (fliegen – flog - geflogen) ga o'zgaradigan fe'llar kiradi. Boshqa qolgan besh turga kiradigan fe'l unlilarining o'zgarishi ham uch asosiy formada aniq belgilanadi.

O'zbek tilida xuddi nemis tilidagi kabi ablaut – fonetik hodisa yo'q. O'zbek tilidagi unlilarning o'zgarishi nemis tiliga o'xshash faqat kuchli fe'llarga tegishli emas, chunki o'zbek tilida fe'llarning bunday turi yo'q. O'zbek tilidagi unlilarning o'zgarishi, asosan, otdan fe'l negizini yasashda yoki aksincha fe'l negizidan ot yasashda uchraydi. Demak, nemis va o'zbek tillaridagi unlilarning o'zgarish xarakteri turlichadir.

Undoshlarning almashinuvi (Konsonantenwechsel). Qadimgi nemis tilida kuchli fe'llar sistemasida undoshlarning almashinuvi keng darajada qo'llangan. Ammo, hozirgi nemis tilida bularning ishlatilish doirasi anchagina torayib, faqat ba'zi fe'llardagina saqlangan, masalan:

d - t: leiden – litt – gelitten

schneiâen – schnitt – geschnitten

s - r: sein – war – gewesen kabi.

b) **So'zning qo'shma (analitik) formalari** (Analytische Formen des Wortes). So'zning qo'shma yoki analitik formalari mustaqil va yordamchi so'zlarning birga qo'llanishidan hosil bo'ladi. Nemis tilida morfologik yordamchi so'zlarga haben, sein werden fe'llari kiradi. Ular sifatdosh II yoki mustaqil ma'noga ega bo'lgan fe'lning infinitiv formasi bilan birga tegishli bo'lgan fe'lning zamon va nisbat formalarini yasaydi. Nemis tilida fe'lning qo'shma (analitik) formalari ko'p ishlatiladi. Masalan, aniqlik maylining 6 zamon formasidan 4 zamon formasi, shart maylining 8 zamon formasidan 6 zamon formasi, majhul nisbatning hamma 6 zamon formalari, aniq nisbatning infinitiv II formasi va majhul nisbatning infinitiv I va II formalari qo'shma (analitik) formalaridan iboratdir.

Nemis tilining xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, otning o'zi qo'shma yoki analitik formada bo'ladi, chunki ot ikki elementdan iborat bo'lib, biri otning o'zi, ikkinchisi esa uning artiklidir. Nemis tilida artikl faqat aniqlik va noaniqlik ma'nolarinigina ifoda etmay, balki otning boshqa grammatik ma'nolari (rod, son va kelishik) ni ifoda etishda ham muhim rol o'ynaydi.

4-Stunde
Kontrollarbeit

5-Stunde

- 1. Ot so'z turkumi;**
- 2. Ot yasovchi qo'shimchalar;**
- 3. Otlarning turlanishi;**
- 4. Mashq va testlar.**

Ot (Das Substantiv)

Ot predmet yoki ish harakatning nomini bildiradi.

Rus tilidagi kabi nemis tilida otlarda 3 xil grammatik rod bo'lib, ularning oldida rodni ko'rsatuvchi artikellar ishlatiladi. Bular:

Der (muj. rod), die (jen. rod), das (sred. rod) lardir.

Nemis tilida otlar qaysi o'rinda kelishidan qat'iy nazar bosh harf bilan yoziladi.

Otlarning ma'no jihatdan turlari

Otlar ma'nosiga ko'ra 2 turga bo'linadi: konkret otlar (die Konkreta) va abstrakt otlar (der Abstrakta).

Konkret otlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) turdosh otlar (der Gattungsnamen) der Student, die Stadt, die Straße, die Schule, der Bruder, das Haus.
- b) Jamlovchi otlar (der Sammelnamen), die Herde (poda) das Volk (xalq) das Gebirge (to'g tizmalari), das Getreide (g'alla), der Reis (guruch).
- c) Atoqli otlar (der Eigennamen) A.Nawoi, Taschkent, Buxara.
- d) Narsa otlari (die Stoffnamen); der Zucker (qand), die Butter (yog'), der Tee (choy), das Wasser (suv).

Abstrakt otlarga abstrakt ma'noni bildiradigan otlar kiradi.

der Liebe(sevgi), das Leben (hayot), der Frieden (ozodlik).

Otlarning tuzilishi jihatdan turlari

Nemis tilida otlar tuzilishiga ko'ra 3 turga bo'linadi.

1. Tub otlar (Stammwörter) Ular bir o'zakdan iborat bo'ladi.

Masalan: der Sohn, der Buch, der Tisch, die Hand, das Feld, das Haus.

2. Yasama otlar (abgeleitete Wörter), ya'ni o'zakka qo'shimcha qo'shish bilan hosil qilingan otlar: der Tischler, der Maler, der Sportler, der Redner, der Flieger.

3. Qo'shma otlar (Zusammengesetzte Substantive) Masalan: der Lehrbuch, der Kinderarzt, die Eisenbahn, die Tischlampe.

Ot yasovchi qo'shimchalar

Ot yasovchi qo'shimchalar tub otlarga qo'shilgach, yangi ot hosil qiladi. Ot yasovchi qo'shimchalarga qarab otlarning rodini aniqlash mumkin.

Mujskoy roddagi otlarning qo'shimchalari

-er, -ner, -ler, -ling, -ig, -ich kabi qo'shimchalar otlarning mujskoy rodga oidligini bildiradi. Masalan, der Tischler, der Redner, der Teppich, der König, der Pfennig, der Essig.

- e qo'shimchasi jonli predmetlarni, shaxsning biron millatga mansub ekanligini bildiradi.

der Bote (elchi), der Erbe (merosxo'r), der Deutsche (nemis), der Usbeke (o'zbek).

Chet el va internatsional so'zlarga xos bo'lgan suffikslar yordamida ham mujskoy roddagi otlar yasaladi:

- ist : der Artist, der Anarchist
- ent: der Student, der Dozent
- ant: der Aspirant, der Kommendant
- at: der Soldat, der Kandidat
- ier: der Offizier, der Bankier
- or: der Doktor, der Professor

-ismus: der Realismus, der Egoismus
-eur: der Friseur, der Ingenieur.

Jenskiy roddagi otlarning qo`shimchalari

-in, -heit, -keit, -ung, -schaft, -e, -ie qo`shimchalari jenskiy roddagi otlarning eng muhim qo`shimchalaridir.

-in bilan mujskoy roddagi otlardan jenskiy rodga oid otlar yasaladi:

der Arbeiter – die Arbeiterin

der Lehrer – die Lehrerin

der Schuler – die Schulerin

der Freund – die Freundin

der Student – die Studentin

-heit: die Einheit, die Kindheit

-keit: die Bitterkeit, die Möglichkeit

-schaft: die Freundschaft, die Eigenschaft

-ung: die Achtung, die Bildung

-e: die Lehre, die Länge, die Tiefe

-ei: die Bücherei, die Singerei

Chet tillardan kirgan -ie, -tion, -tät, -ik, -ur qo`shimchalari ham jenskiy rod qo`shimchasini yasaydi.

-ie: die Theorie, die Chemie

-tion: die Organisation, die Revolution

-tät: die Fakultät, die Universität

-ik: die Fabrik, die Politik

-ur: die Kultur, die Natur

Sredniy roddagi otlarning qo`shimchalari

-chen, -lein, -tum, -nis qo`shimchalari sredniy roddagi otlarning eng muhim qo`shimchalaridir.

-chen, -lein qo`shimchalari kichraytirish, erkalash ma`nolarini bildiradi.

Das Buch – das Büchlein (kitob-kitobcha)

Das Haus – das Häuschen (uy-uycha)

Der Vogel – das Vögelchen (qush-qushcha)

-tum jamlik ma`nosini bildirgan otlarni yasaydi:

der Bauer – das Bauerentum (dehqon-dehqonchilik)

der Held – das Heldentum (qahramon-qahramonlik)

-nis: das Ereignis, das Hindernis (voqea-to`sqinlik)

Chet tillardan kirgan sredniy roddagi otlarning qo`shimchalari:

-al: das Signal, das Lineal

-ment: das Dokument, das Instrument

-at: das Diktat, das Plakat

-um: das Datum, das Album

-ium: die Sanatorium, das Auditorium

-ett: das Ballett, das Bankett

-ma: das Plasma, das Klima

Qo`shma otlar

Qo`shma otlar ikki yoki undan ortiq so`zdan yasaladi. Nemischa qo`shma otlar, tarkibida qancha so`z bo`lishidan qat`iy nazar, bir artikl bilan, ya`ni oxirgi otning artikli bilan ishlatiladi.

Masalan: die Klasse- das Kimmer = das Klassenzimmer

(Sinf+xona) = (sinfxonasi)

die Arbeit +der Tag = der Arbeitstag

(ish) + (kun) = (ish kuni)

Qo`shma otlarning komponentlari nemis tilida ham o`zbek tilidagidek turli so`z turkumlariga oid bo`lishi mumkin:

1. ot+ot: die Haustür, die Wanduhr
2. sifat+ot: schwarzbrod, Jungarbeiter

3. Son+ot: Zweikampf, Neunauge
4. Fe'l+ot: Schreibtisch, Bindeelement

6-Stunde

Otlarning ko`pligi

O`zbek tilida birlikdagi otlarda –lar qo`shimchasini qo`shish bilan ko`plikdagi otlar hosil qilinadi.

Nemis tilida esa otlarning ko`plik shakli 4 xil yo`l bilan hosil qilinadi.

1-turga –e qo`shimchasini oladigan otlar kiradi.

a) mujskoy roddagi bir bo`g`inli otlar:

der Tag – die Tage

der Hund – die Hunde

der Schuh – die Schuhe

Bular umlautsiz qo`llaniladi:

Umlaut bilan;

Der Stuhl – die Stühle

Der Satz – die Sätze

Der Baum – die Bäume

Der Wolf – die Wölfe

b) Jenskiy roddagi bir bo`g`inli otlarning ko`pligi(Ular umlaut oladi):

die Stadt – die Städte

die Kraft – die Kräfte

die Bank – die Bänke

die Maus – die Mäuse

die Nacht – die Nächte

c) Sredniy roddagi ba`zi otlar (Ularda umlaut bo`lmaydi)

das Zahr – die Zahre

das Haar – die Naare

das Werk – die Werke

das Plakat – die Plakate

das Hert – die Herte

2-tur: Ikkinchi turga –en qo`shimchasini oladigan quyidagi otlar kiradi:

a) Jenskiy roddagi otlarning ko`pi:

die Tür – die Türen

die Zeitung – die Zeitungen

die Straße – die Straßen

b) Sredniy rodga mansub bo`lgan ba`zi otlar:

das Ohr – die Ohren

das Herz – die Herzen

das Bett – die Betten

c) chet tillardan kirgan –ist, -ent, -ant, -at, -nom, -graf kabi va kuchsiz turlanishdagi mujskoy roddagi otlar kiradi:

der Student – die Studenten

der Aspirant – die Aspiranten

der Knabe – die Knaben

der Hase – die Hasen

der Usbeke – die Usbeken

der Zunge – die Zungen

der Mensch – die Menschen

der Held - die Helden

der Bär – die Bären

Eslatma: -in qo`shimchasi bilan bitgan jenskiy roddagi otlarning ko`pligida –en qo`shimchasidan oldin –n orttiriladi:

Die Schülerin – die Schülerinnen

Die Lehrerin – die Lehrerinnen

3-tur: Uchinchi turga –er qo`shimchasini oladigan quyidagi otlar kiradi:

a) Sredniy roddagi bir bo`g`inli otlar (Ular umlaut oladi):

das Kind – die Kinder

das Brich – die Bücher

das Haus – die Häuser

das Dorf – die Dörfer

das Dach – die Dächer

b) Mujskoy roddagi ba`zi otlar (Ular ham umlaut oladi):

der Mann – die Männer

der Wald – die Wälder

der Wurm – die Würmer

der Leib – die Leiber

4-tur. Bu turga ko`plikda hech qanday qo`shimcha olmaydigan otlar kiradi. O`zagiga a, o, u unlisi bo`lgan otlar umlaut oladi.

a) –er, -el, -en qo`shimchalari bo`lgan mujskoy roddagi otlar5:

der Mantel - der Mäntel

der Gärten - die Gärten

der Lehrer – die Lehrer

der Schüler – die Schüler

Lekin umlaut olmaydiganlari ham bor.

Der Wagen – die Wagen

Der Kuchen – die Kuchen

Der Kaffer – die Kaffer

b) –er, -el, -en, -chen, -lein qo`shimchali sredniy roddagi otlar. (Ular umlaut olmaydi):

das Messer – die Messer

das Mädchen – die Mädchen

das Tischlein – die Tischlein

v) Jenskiy roddagi otlar umlaut oladi.

Die Mutter – die Mütter

Die Tochter – die Töchter

Chet tillaridan kirgan ba`zi otlar ko`plikda – s suffiksini oladi:

das Foto – die Fotos

das Taxi – die Taxis

das Sofa – die Sofas

das Hotel – die Hotels

der Park – die Parks

der Klub – die Klubs

das Kino – die Kinos

das Auto – die Autos

Die Republik Usbekistan

Es freut mich, mit Ihnen über unsere souverne unabhängige Republik sprechen zu können.

Die Unabhängigkeit der Republik Usbekistan wurde am 1. September verkündet. Sie wurde in kürzer Zeit von über 150 Ländern anerkannt.

Mehr als 45 Staaten unterhalten mit unserer Republik diplomatischen Beziehungen. In Taschkent wurden viele Botschaften eröffnet. Unter ihnen die Botschaft der USA, der Türkei, der Bundesrepublik Deutschlands, Frankreichs, Chinas, Indies u.s.

Das internationale Ansehen Usbekistans wächst von Jahr zu Jahr.

Administrativ besteht die Republik Usbekistan aus 12 Gebieten und der Republik Karakalpakistan. Verwaltungs und Staatsform nach ist Usbekistan eine parlamentarische Republik mit dem Präsidenten als Staatsoberhaupt.

Das gesetzgebende Organ ist der Oberste Sowjet.

Die Staatsflagge der Republik Usbekistan besteht aus den Farben Blau-Weiß- – Grün.

Im oberen Teil der Flagge befinden sich der Halbmond und 12 Sterne. Der Halbmond ist das Symbol der Zugehörigkeit Usbekistans zur islamischen Welt. Die Staatsflagge symbolisiert die Souveränität der Republik Usbekistan im In und Ausland.

Vokabeln und Wendungen (Soʻz va iboralar)

{	die Selbständigkeit	
	die Unabhängigkeit	- mustaqillik
	die Beziehungen	- munosabatlar
	das Ansehen	- obro
	anerkennen	- tan olmoq
	die Botschaften	- elchixonalar
	die Staatsflagge	- davlat bayrogʻi
	der Halbmond	- yarim oy
	das gesetzgebende Organ – Qonun chiqaruvchi organ	

Selbständige Arbeit

Ergänzt die Sätze.

1. Usbekistan ... in Mittelasien.
2. In Taschkent wurden viele ... eröffnet.
3. ... der Republik Usbekistan besteht aus den Farben.
4. In Taschkent wurden ... eröffnet.

Übung 1. Beantworten Sie die Fragen.

1. Wann wurde die Unabhängigkeit der Republik verkündet?
2. Welche Botschaften wurden in Taschkent eröffnet?
3. Wer ist Präsident von Usbekistan?
4. Aus wieviel Gebieten besteht Usbekistan?
5. An welchen Staaten grenzt Usbekistan?

Übung 2. Übersetzen Sie ins Deutsche.

1. 45 dan ortiq davlatlar Oʻzbekiston bilan diplomatik munosabatda.
2. Oʻzbekiston 12 viloyatdan iborat.
3. 1991 yil 31-avgustda Oʻzbekiston Mustaqil Respublika deb eʼlon qilindi.

Bevölkerung, Natur, die Bodenschätzen und Wirtschaft von Usbekistan

In Usbekistan hat 26 Millionen Einwohner.

In Usbekistan leben etwa 69% Usbeken, 11% Russen, Tataren, Kasacken, Tadshiken, 2% Karakalpaken und 6% Angehörige anderer Nationalitäten.

Von den Bewohnern leben etwa 44% in Städten. Am dichtesten ist das Ferganatal besiedelt.

Nature: Das Klima ist hier ausgeprägt kontinental, im Süden dagegen subtropisch.

Die wichtigsten Flüsse sind Amudarja, Syrdarja, Serafschan und Kaschkadarja.

Usbekistan ist reich an Bodenschätzen. Besonders reich ist Usbekistan an Erdgas, Erdöl, Gold, Eisenerz, Nickelerz, Steinkohle, Wolfram.

Der größte Reichtum Usbekistan ist die Baumwolle.

Mit Recht nennt man Usbekistan das Land des weißen Goldes.

Vokabeln und Wendungen

der Einwohner	– aholi
die Bevölkerung	– aholi
die Natur	– tabiat
die Bodenschätzen	– qazilma boyliklar
die Wirtschaft	– xujalik
reich	– boy
das Erdgas	– tabiiy gaz
das Erdöl	– neft
das Gold	– oltin
die Erhöhung	– yuksaltirish

das Eisenerz – temir rudasi
 die Nationalität – millat
 das Neubod – buz er
 der Brennstoff – yoqilg`i
 das Ackerland – ekin, dexqonchilik
 das Getreide – bog`doy
 die Erdgasleitung – tabiiy gaz quvuri
 die Viehzucht – chorvadorlik
 der Mais – makkajuxori
 die Rohseide – qayta ishlanmagan ipak
 dicht – kuyuk
 die Selbständigkeit – mustaqillik
 entwickeln – rivojlanmoq
 liefern – ishlab chiqarmoq

Beantworten Sie die Fragen.

1. Wieviel Millionen Einwohner hat in Usbekistan?
2. Wie ist das Klima von Usbekistan?
3. Welche Flüsse sind in Usbekistan?
4. Welche Bodenschätzen gibt es in Usbekistan?
5. Was nennt man Usbekistan?
6. Wodurch ist Usbekistan bekannt?
7. Was exportiert Usbekistan?

7-Stunde

Otlarning turlanishi

(Die Deklination der Substantive)

Otlarning kelishiklarda o`zgarishi turlanish deyiladi.

Nemis tilida 4 ta kelishik bor.

Bular:

Der Nominativ (Bosh kelishik)
 Der Genetiv (Qaratqich kelishigi)
 Der Dativ (Jo`nalish kelishigi)
 Der Akkusativ (Tushum kelishigi)

O`zbek tili kabi bu kelishiklarning o`ziga xos so`roqlari mavjud.

Nominativ (Bosh kelishik) – Wer? Was? - (Kim? Nima?)

Genetiv (Qaratqich kelishigi) – Wessen? – (Kim?, Nima?)

Dativ (Jo`nalish kelishigi) – Wem? – (Kimga? Nimaga?)

Akkusativ (Tushum kelishigi) – Wen? Was? (Kimni?, Nimani?)

ESLATMA: O`zbek tilidagi o`rin payt va chiqish kelishiklarning ma`nosini nemis tiliga Dativ kelishigi va predloglar zimmasida yuklatiladi.

Otlarning turlanishi uch tipga bo`linadi:

1. Kuchli turlanish.
2. Kuchsiz turlanish.
3. Jenskiy turlanish.

Otlarning kuchli turlanishi

(Die starke Deklination der Substantive)

Bu turlanishda mujskoy roddagi otlarning ko`pi va sredniy roddagi otlarning deyarli hammasi kiradi. (das Hers) so`zidan boshqa.

Bu turlanishning xususiyati otlar Genetiv (Qaratqich kelishigida) –e(s) qo`shimchasini oladi.

Masalan:

Nominativ der Tag – das Buch
 Genetiv des Tages - des Buches
 Dativ dem Tag - dem Buch
 Akkusativ den Tag - das Buch

Otlarning kuchsiz turlanishi

(Die schwache Deklension der Substantive)

Kuchsiz turlanish bilan faqat mujskoy roddagi ba'zi otlar turlanadi. Ular quyidagi guruhlariga bo'linadi.

- 1) –e unlisi bilan tugagan mujskoy roddagi otlar:
der Hase, der Knabe, der Lowe, der Yunge, der Rabe, der Genosse.
- 2) Mujskoy roddagi bir bo'g'inli otlar: der Mensch, der Held, der Herr, der Bär, der Hirt.
- 3) –ist, -ent, -ant, -at, -nom qo'shimchali chet tillardan olingan otlar:
- 4) der Aspirant, der Soldat, der Student.

Bu turlanishning xususiyati Nominativ (Bosh kelishik) dan tashqari hamma kelishiklarda –(e) n qo'shimchasini oladi.

Masalan:

Nom. Der Mensch-	der Knabe-
Gen. Des Menschen	des Knaben
Dat. Dem Menschen	dem Knaben
Akk. Den Menschen	den Knaben
	N. der Soldate -
	G. das Soldaten
	D. dem Soldaten
	Ak. Den Soldaten

Jenskiy turlanish

(Die weibliche Deklination)

Jenskiy turlanishda barcha jensiy roddagi otlar kiradi. Ularning xususiyati hech qanday qo'shimcha olmaydi, faqat artikllar turlanadi.

Masalan:

Nom. Die Frau	- die Tafel
Gen. Der Frau	- der Tafel
Dat. Der Frau	- der Tafel
Akk. Die Frau	- die Tafel

Otlarning ko'plikda turlanishi

(Die Deklension der Substantive im Plural)

Nemis tilidagi uchala roddagi otlar bir xil turlanadi. Ular ko'plik qo'shimchasidan tashqari Dativ kelishigida –n qo'shimchasini oladi

	1-tip	-2-tip	3-tip	4-tip
Kasus	(`) e	-n	.. (-er)	(..) -
Nom.	Die Tische	Die Tafeln	Die Dörfer	Die Mütter
Gen.	Der Tische	Der Tafeln	Der Dörfer	Der Mütter
Dat.	Den Tische	Den Tafeln	Den Dörfer	Den Mütter
Akk.	Die Tische	Die Tafeln	Die Dörfer	Die Mütter

Atoqli otlarning turlanishi

(Die Deklension der Eigennamen)

Atoqli otlar artiklsiz ishlatiladi: Ular faqat Genitivda –s qo'shimchasini oladi.

Nom.: Salim	Buchara
Gen.: Salims	Bucharas
Dat.: Salim	Buchara
Akk.: Salim	Buchara

Übungen zum Thema “Das Substantiv”

Übung 1. Quyidagi otlarning qo'shimchasiga ko'ra rodini aniqlang.

Lehrer, Tischler, Bauer, Misik, Doktor, Museum, Krankheit, Student, Soldat, Redner, Gesundheit, Bildung, Wohnung, Schülerin.

Übung 2. Berilgan ikki otdan qo'shma ot yasang.

der Tisch -
der Winter -
das Eisen -
die Kinder -
die Musik -
die Wörter -
die Lampe -
die Ferien -
die Bahn -
der Garten -
der Lehrer -
das Buch -

Übung 3. Bilden Sie die Pluralformen der folgenden Substantive.

- a) das Frühjahr, der Hof, der Palast, der Messetag;
- b) der Staat, der See, das Ohr, das Verb, das Hemd, das Bett;
- c) das Buch, das Feld, das Kind, das Kaufhaus, das Dach;
- d) der Mantel, der Garten, der Lehrer, der Schüler, die Mutter;
- e) das Auto, das Kino, der Klub, der Park, das Hotel, das Foto, das Taxi.

Übung 4. Übersetzen Sie ins Deutsche.

1. Bizning institutda 1 ta kutubxona va ko`plab o`quv xonalari bor. 2. Chet tili darsida biz ko`plab matnlarni tarjima qilamiz. 3. Institutda juda ko`p to`g`araklar bor. 4. Xonalar juda shinam va yorug`.

Übung 5. Gebrauchen Sie die Substantive in Klammern im Genitiv.

1. Der Referat (der Student) ist interessant. 2. Die Zimmer (das Haus) sind gross. 3. Das Instrument (der Musikant) ist altmodisch. 4. Die Schuhe (der Knabe) sind neu.

Übung 6. Setzen Sie die Wortverbindungen in Klammern in den richtigen Kasus ein.

1. Das Mädchen zeigt (die Lehrerin) ihre Arbeit. 2. Der Lehrer lobt (das Kind). 3. Ich fahre mit (der Genosse) nach Samarkand. 4. Der Vater kauft (der Sohn) einen Anzug. 5. Er schreibt (der Bruder) einen Brief.

Übung 7. Deklinieren Sie!

Die Wohnung, die Klasse, das Buch, der Student, das Kind, die Übung, der Knabe, die Kinder.

Übung 8. Übersetzen Sie ins Deutsche.

1. Uyning derezasi katta. 2. Karimning daftari stolning ustida yotibdi. 3. Dostonning ishi juda mazmunli. 4. U otasiga xat yozdi. 5. Ona qiziga ko`ylak sotib oldi.

Übung 9. Beantworten Sie folgende Fragen.

1. Wen untersucht der Arzt? 2. Wen lobt der Lehrer? 3. Mit wem geht Rano ins Kino? 4. Wem gehören diese Hefte? 5. Wessen Aussprache ist sehr gut? 6. Was korrigiert der Lehrer?

8-Stunde

Kontrollarbeit

9-Stunde

ARTIKL (der Artikel)

Nemis tilida otlar artikl bilan qo`llaniladi.

Artikl – maxsus so`z bo`lib u tarjima qilinmaydi, otlarning oldida kelib, ularning rodini, sonini, kelishigini ko`rsatadi.

Artikllar 2 xil bo`ladi.

1. Aniq artikl (der, das, die; ko`plikda die).
2. Noaniq artikllar (ein, eine, ein; ko`pligi yo`q).

Artiklning qo`llanilishi

Quyidagi hollarda noaniq artikl qo`llaniladi:

- 1) Agar biron predmet haqida birinchi marta atalsa, o`sha predmet nomi oldida:
Das ist eine Schule.
Die Schule ist groß.

2) Otlar es gibt (bor) iborasini va haben (ega bo`lmoq), brauchen (kerak bo`lmoq) fe`llaridan keyin noaniq artikl doimo akkusativ kelishigida qo`llaniladi.

Ich habe einen Bruder
 Du brauchst ein Buch
 In unserer Schule gibt es eine Bibliothek, einen Hörsaal.

3). Predmetlarning biri ikkinchisi bilan qiyoslanganda:

-Er spricht wie ein Dolmetscher

-Sie sieht wie ein Professor aus.

4). Biror bir shaxs yoki predmetga qandaydir sifat berilayotganda:

-Er ist ein fleißiger Student.

5). Gapda kesim bo`lib kelgan ot oldidan:

- Nawoi ist eine große Stadt.

Noaniq artiklning turlanishi

kelishik	Muj.rod	Jen. rod	Sred.rod	Ko`plik
Nom.	Ein	Eine	Ein	-
Gen.	Eines	Einer	Eines	-
Dat.	Einem	Einer	Einem	-
Akk.	Einen	Eine	Ein	-

Aniq artikl (die, der, das)

Ular quyidagi hollarda ishlatiladi.

1) Belgisi aniq va kontekstda ma`lum bo`lgan otlar oldidan:

M.: Der Roman ist sehr interessant.

2) Ortirma darajadagi sifat bilan ishlatilgan otlar oldidan:

Lola ist die beste Studentin.

3) Tartib sonlar oldidan:

Das war der erste Roman

Die zweite Stunde beginnt um 10 Uhr.

3) Yakka-yagona predmet nomlari oldida:

Die Sonne (Quyosh)

Der Mond (Oy)

Der Himmel (Osmon)

Die Erde (Yer)

Die Welt (Dunyo)

4) Oy va kun nomlari oldida:

Der Januar, der März, der Montag, der Sonntag.

5) Aniqlovchi ot Genetiv kelishigida bo`lsa:

Der Tasche des Studenten ist neu.

Die Brille der Mutter ist schön.

Talabaning sumkasi yangi.

Onamning ko`zoynagi chiroyli.

6) Tog`, daryo, dengiz, ko`l, okean, qit`a va qutublarning nomlari oldidan:

Der Elbe, der Rhein, der Mars, der Osten, der Süden.

Aniq artiklning turlanishi

Kelishik	Muj.rod	Jen. rod	Sred.rod	Ko`plik
Nom.	der	die	das	die
Gen.	des	der	des	der
Dat.	dem	der	dem	den
Akk.	den	die	das	die

